

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK
SUB'EKLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Yakubov Baxtiyor Pulatovich
Davlat soliq qo'mitasi davlat soliq bosh inspektori

Annotatsiya: Maqolada foyda bozor iktisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, tadbirkorlar faoliyatining natijasidir. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishning eng so'nggi bosqichi bo'lib, adolatli soliq hisoblanadi. Chunki bu soliq korxonalarining soliq solish maqsadida ijobjiy faoliyat natijasidan bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, budget siyosati, foyda solig'i, budget, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi

Adabiyotlar sharxi.

Mavzu doirasida asosiy o'rganiluvchi iqtisodiy kategoriya kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirishga berilgan ta'riflarga batafsil to'xtalsak.

Xususan R.Kantilon tadbirkorlikni foyda olish chegaralanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib oladi-yu, lekin sotish bahosi noaniq bo'ladi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi¹ - deb baholaydi.

Shumpeter tadbirkorlikning besh muhim tomonini: iste'molchilarga noma'lum yangi tovarlar ishlab chiqarishi; yangi ishlab chiqarishni qo'llashi va mavjud tovarlar tijoriyligini ta'minlash; yangi tovarlarni o'zlashtirishi; yangi xom-ashyolarning ishlatilishi; tarmoqni takomillashtirishni ko'rsatib beradi. Tadbirkor yangi kombinatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsdir² - deb ta'kidlaydi.

S.G'ulomovning ta'kidlashicha, kichik biznes va tadbirkorlik har qanday sharoitda, iqtisodiy tushkunlikda ham, inflyatsiya davrida ham, kreditlar foizi o'ta yuqori bo'lganda ham, zarur infratuzilmasiz kelajagi noma'lum hollarda ham, xavf-xatar qanchalik yuqori bo'lishiga qaramay yashayveradi .

A.O'limasov tomonidan «Kichik biznes – kishilar (mulkchilik) sub'ektlarining moddiy va pul mablag'larini (kapitalini) amalda xo'jalik oborotiga, daromad topishga mo'ljallangandir», deya ta'kidlagan bo'lsa, Yo.Abdullaev tadbirkorlikka – qonun hujjatlariga muvofiq, daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar

¹ Azizova M. Kichik biznes muammolari maqsadi // O'zbekiston iqtisodiyot axborotnomasi. –Toshkent, 1999, 1-2 sonlari-34 -bet.

² Balashevich. M.I. «Malyy biznes: otechestvennyy i zarubejnyy orbyt» Ucheb. Posobie. -Moskva. NKF «Ekoperspektiva», 1995., - 27-28. str

tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo‘li bilan tavakkal qilib, o‘z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati sifatida ta’rif bergen.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Qiyosiy usuldan foydalanilib, tadbirkorlik sub’ektlarini doir ma’lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi uchinchi yo‘nalishida “makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchilagini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarни kengaytirish” kabi chora-tadbirlar belgilangan³.

Ta’kidlash joizki, amalga oshirilgan islohotlar natijasida Jahon bankining “Doing Business” 2020-yangi har yillik hisobotidi O‘zbekiston 7-o‘rin yuqoriga ko‘tarilib, dunyoning 190-mamlakati orasida 69-o‘rinni egalladi. Bu bizning mamlakatimizga ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan 20-ta mamlakat qatoriga kirish imkonini berdi. Shuningdek, “Iqtisodiy erkinlik indeksi” reytingida O‘zbekiston 26-pog‘onaga ko‘tarilib, 2020-yilda 114-o‘rinni, “Raqobatbardosh sanoat unumдорлиги indeksi” 2020-yilgi reyting natijalariga ko‘ra 152-davlat orasida 92-o‘rinni egalladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, farovon turmushini ta’minlashda muhim o‘rin tutayotgan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biridir.⁴

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydag‘i “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonuniga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati – tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjalariга muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir - deb ta’rif berilgan.

O‘rganishlar ko‘rsatmoqdaki, «biznes» va «tadbirkorlik» tushunchalari xususida iqtisodchi olimlar tomonidan turli fikr va yondashuvlar bildirilgan bo‘lib, yagona ta’rifga kelinmagan. Ushbu tushunchalar sinonim so‘zlaridek qaraladi.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni

⁴Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minlashning muhim omilidir” – Toshkent.: Xalq so‘zi gazetasi, 2017, 8 yanvar.

“Biznes”- so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so‘z bilan aytganda, kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir⁵.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi “Yakka tartibdagi tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, jismoniy shaxslar 2011-yil 1-apreldan boshlab qaror bilan tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilmagan faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi. Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan 87-ta faoliyat turlari ro‘yxati kiritilgan (ilova-1).

O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi 2 ta (umumiy va maxsus) qism, 21 bo‘lim, 72 bob va 483 ta moddadan iboratdir. Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish bo‘yicha quyidagi tartiblar belgilandi:

- kichik tadbirkorlik sub’ektlari tovar aylanmasi hajmidan kelib chiqib, avvalgi yagona soliq to‘lovi o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq joriy etildi. Bunda, jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar va daromadi 100 mln. so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchisi bo‘lishi belgilandi
- 2020-yilning 1-iyulidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hosil bo‘lgan ortiqcha summani, ya’ni “manfiy” qoldiq summasini to‘liqligicha qaytarish tartibi joriy etildi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining asosiy stavkasi 12 foiz va QQS stavkasi 15 foiz etib belgilandi;
- soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini taqdim etishning yangi tartibi joriy etildi;
- xo‘jalik sub’ektlarini xavflilik darajasiga 42 ta mezonlar asosida tahlika-tahlil (Risk-analiz) dasturi yordamida 3 ta segmentga (yashil, sariq va qizil yo‘laklarga) ajratish hamda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, soliq nazoratining yangi kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv va soliq audit o‘tkazish tartibi joriy etildi;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan soliq summasi o‘rtacha 30 foizga kamaytirilib, ularga soliqlarni to‘lash bo‘yicha tanlash huquqi berildi. Xususan, ular soliqni qat’iy belgilangan miqdorlarda to‘lashi yoxud jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya asosida to‘lash imkoniyati berildi;
- ijtimoiy soliq stavkasi davlat korxonalariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga, shuningdek ustav fondida 50 yoki

⁵Rayzberg B.A. Sovremennyy ekonomichekiy slovar.-M.: INFRA-M, 1997.,-496 str.

undan ortiq foiz davlat ulushi bo‘lgan yuridik shaxslarga va ularning tarkibiy bo‘linmalariga nisbatan 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi;

– hisobvaraqtarmalarni elektron shaklda rasmiylashtirish joriy etildi va Soliq kodeksida ham hisobvaraqtarmalar qoida tariqasida elektron shaklda bo‘lishi belgilandi va boshqalar.

Respublikada shakllangan soliq siёsati “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli borilmoqda⁶” degan prinsip asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi hamda respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuni e’tirof etish joizki, iqtisodiy dastaklardan biri bo‘lgan soliq mexanizmi orqali ularnining faoliyatini tartibga solish va rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

- Korxonalarning innovatsion faolligini oshirish uchun ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari uchun xarajatlarning miqdoriga nisbatan foyda solig‘idan qo‘shimcha chegirmalar tarzidagi imtiyoz berish tartibini joriy qilish;

- Intellektual mol-mulklardan olingen daromadlar uchun patent box rejimini joriy etish lozim. Bunda, intellektual mulk ob’ektlarining bir qismi bo‘lgan o‘z patentlarini, litsenziyalarni, nou-xau va boshqa moddiy bo‘lmagan obektlaridan ishlab chiqarishda foydalanish natijasida olingen foydani soliqqa tortishda foyda solig‘ining pasaytirilgan stavkasi joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.
3. Ma’ruza (2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 20-apreldagi aholining ijtimoiy himoyasi hamda qurilish va infratuzilma tarmoqlari faoliyati masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishdagi ma’ruzasi <https://president.uz/uz/lists/view/3506>.

⁶ Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016 yil 15 dekabr.